

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZIYORAT TURIZMI BOSHQARUVINING TASHKILY - IQTISODIY MEXANIZMLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6082396>

Ismatov Ismatillo Inoyatovich

O'zXIA 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston respublikasida ziyorat turizmi boshqaruvining tashkiliy - iqtisodiy mexanizmlari haqida so'z boradi. Muallif iqtisodiy ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida muammoni tahlil qilgan va O'zbekiston respublikasida ziyorat turizmi boshqaruvining tashkiliy - iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha mavjud o'ziga xos jihatlarni o'rgangan.*

Ka'lit so'z: *ziyorat turizmi, ma'naviy ruhiy yuksalish, axloqiy poklanish, muqaddas qadamjolar.*

Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonida xalqaro turizm sohasi tobora jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, xalqaro turizm sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida eng yuqori serdaromadli va dinamik holatda o'sib borayotgan tarmoqlardan biriga aylanib bormoqda. Jahon turistik tashkiloti (JTT) ma'lumotlariga ko'ra, turizm sohasiga butunjahon investitsiya kapitallari umumiy miqdorining qariyb 7 foizi, butun iste'mol harajatlarining 11 foizi, butunjahon soliq tushumining 5 foizdan ko'prog'i, xalqaro xizmat ko'rsatish va servis tarmoqlarining uchdan bir qismi to'g'ri keladi.

Halqaro turizm sohasi jahon xo'jaligining transport, aloqa, savdosotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo'jaligi, iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari (yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari) bilan chambarchas holda rivojlanib bormoqda va jahon iqtisodiyotida ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyotning katalizatori sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi kunda xalqaro turizmning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya'ni ziyoratchilik turizmi bo'lib hisoblanadi. Ziyoratchilik turizmning shakllanish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. YA'ni uning ilk bor vujudga kelishi antik davriga to'g'ri keladi. Ziyoratchilik turizmning asosiy paydo bo'lgan maskanlari qadimgi greklar va rimliklar vatani bo'lib hisoblanadi. Qadimda greklar va rimliklar ibodatxonalar va cherkovlar qurib, ularda sig'inishganlar. Ziyoratchilarning sayyohat qilishidan asosiy mahsadi aziz avliyo joylarga qadam ranjida qilishi, sig'inish chog'ida ruhiy jihatdan yengillashishi, ko'ngillarning poklanishi, og'ir kasalliklardan xolos bo'lmoqligi, qilib quygan gunoh ishlarini ollohdan so'rab kechirishlarini, safar chog'ida safdoshlari bilan ma'naviy yaqinlikda bo'lishni orzu-umid qilishadilar. Ziyoratchi sayyohlar safarga chiqishida o'z orzu umidlariga erishish, yaratganga shukronlar aytib uning izzat hurmatini bajo keltirishni o'z ko'ngillaridan o'tkazadilar.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ziyoratchilik sayyohligining 10 dan ortiq yirik markazlari mavjud bo'lib, ular yer sharining deyarli hamma qit'alarida joylashgandir.

2017 yil 2 noyabr kuni O'zbekiston musulmonlari idorasida ziyorat turizmini tashkil etish bo'yicha qilinayotgan ishlarni jadallashlatirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Toshkent islom universiteti va yurtimizdagi eng yetakchi sayyohlik firmalar ishtirokida ishchi yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishni O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Sh.Minovarov ochib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgust kungi «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi davlatimiz tomonidan turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay muhitni shakllantirgan holda yurtimizga keladigan sayyohlar oqimini ko'paytirish yo'nalishida ziyorat turizmi tashkil etilayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidentining 16 avgustdagi qarori bilan O'zbekistonga sayohat qilishni yengillashtirish, turizm infratuzilmalarini rivojlantirish va yangi turizm obyektlarini tashkil etishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Bir oy muddat ichida fuqarolariga 2018 yilning 1 yanvaridan viza tartibini soddalashtirish taklif etilayotgan mamlakatlar hamda fuqarolariga maxsus ziyorat turizmi dasturlari taklif etiladigan davlatlar ro'yxati shakllantiriladi.

Malayziya, Indoneziya va boshqa mamlakatlardan O'zbekistondagi muqaddas qadamjolarga ziyorat turizm yo'nalishidagi sayyohlarni jalb qilish bo'yicha ishlar faollashtirilib, bu borada kerakli reklama tadbirlarini o'tkaziladi, logistika, jumladan, charter reyslarni tashkil etiladi.

Buxoro va Samarqand shaharlaridagi turizm hududlari tajribasi asosida Urganch, Toshkent shaharlari va Farg'ona viloyatida turizm hududlari, shuningdek, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida tog' klasterlari bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Dastur asosida Andijon viloyatining Xonobod shahrida dam olish zonasi, Jizzax viloyatining Forish va Arnasoy tumanlarida Aydar-Arnasoy ko'llari sohilarida beshta yangi dam olish zonasi, Qashqadaryo viloyatining Qarshi va Shahrisabz shaharlarida to'rt yulduzli mehmonxonalar qurish rejalashtirilgan.

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Chimyon tog' hududida mehmonxonona majmuasi quriladi. To'dako'l ko'lining janubiy qirg'og'ida ichki turizm uchun, Navoiy viloyatida Arnasoy ko'li sohilida esa chet ellik sayyohlar uchun plyaj infratuzilmasi bunyod etiladi.

Tadbirkorlik subyektlariga yangi mehmonxonalar va boshqa turizm infratuzilma inshootlari qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish uchun uzoq muddatli (15 yilgacha) kreditlar ajratish amaliyotga joriy qilinib, bunda kredit va foizlarni qoplashning mehmonxonalar kapital talabiligi va mavsumiy yuklanganligini hisobga oluvchi sharoitdan kelib chiqadigan talablar nazarda tutiladi.

2022 yil 1 yanvarga qadar mehmonxonalar — boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilingan malakali xorijlik mutaxassislarning mehnatiga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan, mehmonxonalarga boshqaruv xodimlari sifatida jalb qilinadigan malakali xorijlik mutaxassislarning daromadlari — jismoniy shaxslarning daromad solig'idan ozod etiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, Mustaqillik yillarida respublikamiz davlatimiz rahbarining bevosita rahbarligida juda ko’pgina aziz, avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta’mirlanib, asl holatiga keltirildi. Bir qancha qadamjo joylar xushmanzara, obod, ziyoratgoh maskanlarga aylantirildi.

Ular qatoriga Bahovuddin Naqshbandiy, G’ijduvoni, Imom al-Buxoriy, Mahtumi A’zam, Shohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon olamining beqiyos, go’zal ziyorat qiladigan va ma’naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi qonun // «Xalq so‘zi» gazetasi, 1999 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Turizm faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2003 y.
3. «2006-2010 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi va servisni jadal rivojlantirish xaqida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2006 y.
4. Aliyeva M.T., Umarjonov A.«Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti» T: «Moliya» 2005 y.
5. Axmedov X.I, Allabergenov A.A. «Turizm faoliyatini tashkil etish» T: 2004y.
6. Birjakov M.B. «Vvedeniye v turizm».Uchebnik. SPb.Izd. dom «Gerda», 2006 g.
7. Bgatov A.P. «Turistskiye formalnosti». «Akademiya». M. 2004 g.
8. Dovjenko G. “Ekskursionnoye delo” Moskva 2006 g.
9. Durovich A.P., G.A.Bondarenko, T.M.Sergeyeva i dr. «Organizatsiya turizma». Uch.pos. Mn: 2005 g.
10. Zdorov A.B “Ekonomika v turizme” Uchebnik. Finansi i statistika, - M.: 2005 g.
11. Kvartalnov V.A. «Teoriya i praktika turizma». Uchebnik—M: Finansi i statistika, 2003.